



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**DAVLAT SOLIQ QO‘MITASI HUZURIDAGI**  
**KADASTR AGENTLIGI**

**BUYRUQ**

№ 211-02

Toshkent sh.

14.09.2022

**Tanlov o‘tkazish komissiyasi  
tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-684-son Qonuni talablariga asosan Agentlik tomonidan o‘tkaziladigan tanlovlar (tender) g‘olib ta‘minotchini aniqlash bo‘yicha komissiya tarkibini tasdiqlash maqsadida, **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-684-son Qonuni talablariga asosan Agentlik tomonidan o‘tkaziladigan tanlov (tender)lar g‘olib (pudratchi) ta‘minotchini aniqlash va shartnoma tuzish, tegishli yo‘nalishlardan kelib chiqqan holda Agentlik direktorining o‘rinbosarlari boshchiligida Agentlik tomonidan o‘tkaziladigan tanlov (tender)lar g‘olibni aniqlash bo‘yicha komissiyasi tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. **Komissiya raisi yo‘nalish bo‘yicha (A. Allaberganov, T. Abdullayev, M. Mirmaksudov)ga** Agentlik tomonidan o‘tkaziladigan tanlovlar bo‘yicha o‘rnatilgan tartibda g‘olib (pudratchi tashkilot)ni aniqlash, tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish ishlarini samarali tashkil etish vazifalari yuklatilsin.

3. **Moliya-iqtisod va buxgalteriya boshqarmasi (R. Muxammadiyev) va Ishlar boshqarmasi (R. Inomov)ga** o‘tkazilgan tanlov (tender)lar g‘olibi bilan o‘rnatilgan tartibda shartnomalarni tuzish hamda to‘lovlarni shartnomada belgilangan muddatlarda amalga oshirish vazifasi yuklatilsin

4. O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasining 2017-yil 08-apreldagi 104-son buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

5. Ushbu buyruqning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

**Direktor**

  
**F. Pulatov**

*Agentlikning  
2022-yil "14"-sentabrdagi  
211-02-son buyrug'iga  
1-ilova*

**Agentlik tomonidan o'tkaziladigan tanlov (tender)lar g'olibni aniqlash bo'yicha  
komissiya  
TARKIBI**

<b>t/r</b>	<b>F.I.Sh.</b>	<b>Lavozimi</b>	<b>Izoh</b>
<i>Komissiya raisi (yo'nalish bo'yicha):</i>			
1.	Allaberganov Atabek Validjanovich	Direktorning birinchi o'rinbosari	
2.	Abdullayev Tulqin Mansurovich	Direktor o'rinbosari	
3.	Mirmaksudov Mirsaid Sadikovich	Direktor o'rinbosari	
<i>Komissiya a'zolari:</i>			
4.	Muxammadiyev Ramz Zoirjon og'li	Moliya-iqtisod va buxgalteriya boshqarmasi boshlig'i	
5.	Inomov Rustam Nizamovich	Ishlar boshqarmasi boshlig'i	
6.	Amirkulov Djamshid Djumayevich	Yuridik boshqarma bosh yuriskonsulti	
7.	Ergeshov Ixtiyar Makkambayevich	Yerni masofadan turib zondlash, geodeziya va kartografiya boshqarmasi boshlig'i	
8.	Umarov Dilshod Muxtorovich	Davlat chegarasini delimitatsiya va demarkatsiya qilish boshqarmasi boshlig'i	
9.	G'aybullayev Shaxriyor Baxtiyor o'g'li	Bosh hisobchi	
10.	Shamansurov Baxtiyor Qaxramonovich	Komplayens-nazorat xizmati boshlig'i	
11.	Abdullayev Olimjon Maxmudjonovich	IT-texnologiyalar va axborot xavfsizligi bo'limi boshlig'i	
12.	Xudoyberdiyev Alisher Faxriddin o'g'li	Ishlar boshqarmasi bosh mutaxassisi	
13.	O'rinov Jaxongir Baxodir o'g'li	Komissiya kotibi	

*Izoh: Xodimlarning lavozimi o'zgargan taqdirda, ularning o'rniga tayinlangan shaxs komissiya a'zosi hisoblanadi.*